



GLOBALASHUV JARAYONLARINING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

Ismatullaev Temur Ravshan o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri
"O'zavtosanoat" AJ Savdoni rivojlantirish va
marketing boshqarmasi Bosh mutaxassisiga

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari va uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri, shuningdek iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki va tashqi omillar atroflicha o'rganilgan.

Kalit so'zlar: globalizatsiya, iqtisodiy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, tashqi savdo, ichki va tashqi omillar, eksport, import, davlat siyosati, halqaro hamkorlik.

ВЛИЯНИЕ ПРОЦЕССОВ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ СТРАНЫ

Исматуллаев Темур Равшан угли

Магистрант Ташкентского государственного
экономического университета
Главный специалист Управления развития
продаж и маркетинга АО "Узавтосаноат"

Аннотация. В данной статье подробно исследуются процессы глобализации и ее влияние на экономическую безопасность страны, а также внутренние и внешние факторы, угрожающие экономической безопасности.

Ключевые слова: глобализация, экономическая безопасность, национальная безопасность, внешняя торговля, внутренние и внешние факторы, экспорт, импорт, государственная политика, международное сотрудничество.

THE EFFECT OF GLOBALIZATION PROCESSES ON THE ECONOMIC SECURITY OF THE COUNTRY

Ismatullaev Temur Ravshan ugli

Master of Tashkent State University of Economics
Chief specialist of Sales development and marketing
department of "Uzavtosanoat" JSC

Abstract. In this article, the processes of globalization and its impact on the country's economic security, as well as internal and external factors that threaten economic security, are thoroughly studied.

Key words: globalization, economic security, national security, foreign trade, internal and external factors, export, import, state policy, international cooperation.

Kirish

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotning globallashuvi va transport infratuzilmasining rivojlanishi natijasida barcha davlatlar iqtisodiyotining o'zaro bir-biriga bog'liqlik darajasi kuchayib bormoqda, bu esa mamlakatlarning iqtisodiy mustaqilligiga turli tahdidlarni tug'dirishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun uning holatini doimiy tahlil qilib borish, unga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur. Ayniqsa, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtaisdagi iqtisodiy, texnologik va ilmiy sohalarda katta farqning paydo bo'lishi bu jarayonni yanada tezlashishishga sabab bo'lmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi salbiy omillarni kamaytirishning yagona yo'li milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishdir. Milliy ishlab chiqarishing rivojlanishi davlatlararo bo'layotgan iqtisodiy cheklovlarni qo'llashdan keladigan zararni kamaytiradi hamda milliy boylikning ko'payishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharti.

Marjinalistlar orasida neoklassik iqtisodiyot maktabi namoyondasi Pareto (1991)ning ilmiy ishlari, ayniqsa, uning jamiyat xavfsizligi teoriyasini iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha dastlabki asosiy ilmiy ishlardan bo'lgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar, jamiyat xavfsizligi uch omilga bog'liqligi, ya'ni siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va davlatning mudofaa qobiliyati iqtisodiy xavfsizlikni tashkil etishi, ularning ham tashqi, ham ichki ta'sirlarga bog'liqligini o'rganish nazariyasi asoschilaridan biri aynan V.Pareto ekanligini ta'kidlashadi.

Milliy xavfsizlikning (ham iqtisodiy, ham siyosiy) ko'plab jihatlarini iqtisodchi olim, siyosatchi, ingliz davlat arbobi Keyns (1993) o'z asarlarida ochib bergan. Xitoylik olimlardan biri Szyan Yun (2007) iqtisodiy xavfsizlikka quyidagi ta'rifni bergan: "... iqtisodiy xavfsizlik deganda iqtisodiy mustaqillikni saqlab, milliy iqtisodiy rivojlanish orqali butun aholi turmush darajasining bosqichma-bosqich o'sishini ta'minlash qobiliyati tushuniladi".

Amerikalik olim Nanto (2011) o'zining asarida AQSh siyosatining milliy xavfsizlik va iqtisodiyot uchun muammolari va oqibatlarini ko'rib chiqqan. Uning fikriga ko'ra, iqtisodiyot turli yo'llar bilan milliy xavfsizlik masalalariga organik ravishda mos keladi.

Rossiyalik olimlardan V.K.Senchagov, L.I.Abalkin, A.I.Archipov, T.D.Romashenko, T.E.Kochegina, T.R.Orexova va boshqalar iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha ilmiy ishlar qilishgan. MDH davlatlari olimlari ichida V.K.Senchagov, L.I. Abalkin, A.I.Archipov, A.E.Gorodeskiy, B.M.Mixaylov kabi olimlar iqtisodiy xavfsizlikning nazariy jihatlarini birinchilardan bo'lib tadqiq etishgan bo'lsa, keyinchalik S.M.Drobishevskiy (2006), Lapaeva (2017) kabi olimlar iqtisodiy xavfsizlikni baholashning statistik-matematik usullarini, iqtisodiy xavfsizlikni baholashda indikatorlardan foydalangan holda tahlil olib borishni tadqiq etishgan.

Ortiqovaning (2010) "Iqtisodiy xavfsizlik" o'quv qo'llanmasida mamlakat iqtisodiy xavfsizligi masalalari, unga bo'ladijan tahdidlar, uning ko'rsatkichlari, mezonlari va quyi chegaraviy miqdorlari to'g'risida tasavvurlar beriladi. Unda globalashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda regional tashkilotlarning o'rni va roli, terrorizm, xufiyona iqtisodiyot, korrupsiya va ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri masalalariga alohida o'rinn berilgan.

Isroilov va Karimov (2018) boshchiligidagi mualliflar jamoasi o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi, uning tarkibiy tuzilishi, iqtisodiy xavfsizlikni baholash ko'rsatkichlari, iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi tahdidlar va ularni kamaytirish yo'llarini tadqiq etishgan va nazariy asoslashgan.

Tadqiqotchi Karimov va Xamidovalar (2020)ning iqtisodiy xavfsizlik masalalariga bog'liq ilmiy ishlarida moliyaviy xavfsizlik, mintaqaviy-hududiy iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash mavzularini yoritgan.

Jabborov (2020) o'z ilmiy izlanishlarida O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi risklarning matematik-statistik tahlillarini, mamlakat iqtisodiyotining saonatlashuvi, uning darajasi, iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi indikatorlarni tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolani yozish jarayonida ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhash usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonlik olimlar, tadqiqotchilar tomonidan iqtisodiy xavfsizlik masalalari bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, globalashuv jarayonlarining mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri kam o'rganilgan. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi ba'zi davlatlarda "Milliy xavfsizlik" tushunchasi tarkibiga kiradi. "Milliy iqtisodiy xavfsizlik" – bu iqtisodiyotning va davlat boshqaruv

organlarining suverenitetni va milliy qiziqishlarni himoya qilishining kafolati bo'lib, jamiyatni iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlarda doimiy rivojlantirish, mudofaa qobiliyatini ta'minlashdir.

"Globallashuv" iborasi birinchi marta 1983-yilda Levitt (2009) tomonidan qo'llangan. U "ko'pmillatli yirik korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan alohida mahsulotlar bozorlarining qo'shilib ketish hodisasini" globallashuv iborasi bilan ifodalagan. Bugungi kunda globallashuv - baynalmilallahuvning eng yangi bosqichini o'zida ifoda etib, dunyo xo'jaligi yagona iqtisodiy organizmga aylana boshladi. Mamlakatlararo tovar va xizmatlar, kapital va axborot oqimlarining, xalqaro miqyosda mehnat resurslari harakatchanligining keskin o'sib borishi globallashuvning xarakterli xususiyatlaridan biridir. Ko'plab kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarishning milliy bozorlarga emas, ko'proq dunyo bozorlariga yo'naltirilganligi dunyo iqtisodiyoti globallashuvning hozirgi bosqichini harakatlantiruvchi asosiy kuch bo'lib hisoblanadi.

Globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri masalalarini o'rganishda "iqtisodiy globallashuv" muammosiga ko'proq ahamiyat berish kerak bo'ladi.

Transmilliy korporasiyalarning o'sib borishi, ya'ni ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, xalqaro miqyoslarda pul ko'rinishidagi kapitalning turli shakllarda harakat qilishi "iqtisodiy globallashuv" tushunchasiga sifat jihatdan yangi mazmun baxsh etdi.

1-jadval

Iqtisodiy globallashuvning xususiyatlari¹⁹

Nº	Iqtisodiy globallashuvning xususiyatlari	Natijasi
1.	Keyingi yillarda dunyoda sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar natijasida jahon xo'jaligining universallashuvi, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan iqtisodiy makonning kengayishi	Barcha mamlakatlarda milliy ishlab chiqaruvchilar asosiy e'tiborni ichki bozorlarga emas xalqaro bozorlarga qaratmoqdalar
2.	Kapital harakatining erkinlashuvi hamda moliya tizimlari va valyuta nazoratini tartibga solishning qiyinlashuvi	Natijada, xalqaro savdo hajmlari, mamlakatlar o'rtasida moliyaviy va sarmoya oqimlari bir necha barobar oshib bormoqda
3.	Milliy xo'jaliklarning iqtisodiy jihatdan ochiqligining ortib borishi	Bunday holat dunyoda iste'mol qilinayotgan tovar va xizmatlarning o'rta hisobda deyarli yarmi to'la yoki qisman ular iste'mol qilinayotgan mamlakatlardan tashqarida ishlab chiqarilishini ko'rsatadi
4.	Ihsizlikka va mamlakatlarning ish bilan bandlikning barqaror yuqori darajasini ta'minlash qobiliyatiga ta'siri	Hozirgi kunda ilm talab qiladigan va yuqori texnologiyali tarmoqlar yuqori malakali, lekin kam miqdorda ishchi kuchi talab etadi. Keyingi yillarda mehnat, material va energiya talab etadigan tarmoqlarda band bo'lgan past va o'rtacha malakaga ega bo'lgan xodimlar soni qisqarib bormoqda. Ularning bir qismi xizmat ko'rsatish sektorlariga o'tmoqda, lekin katta qismi ishsizlar qatoridan joy olmoqda
5.	Iqtisodiy jarayonlarning global muammolar, jumladan, resurslarning cheklanganligi, demografik vaziyatning va oziq-ovqat muammolarining keskinlashuvi	Rivojlangan mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi texnologik va intellektual salohiyatdagi tafovutning chuqurlashuvi, daromadlar bo'yicha differensiatsiyaning kuchayishi, ekologik muammolarining keskinlashuvi

Globallashuv tarafdorlari ushbu jarayonda ishtirok etadigan barcha mamlakatlar undan foyda ko'radi, degan fikrni bildiradilar. Lekin real hayotda global munosabatlarning ustunliklaridan asosan rivojlangan mamlakatlar manfaat ko'rmoqdalar, degan fikrlar ham mavjud.

Globallashuv sharoitida mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi - ko'p qirrali tushuncha bo'lib, hozircha uning yagona talqini qabul qilinmagan. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi

¹⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallahuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqada ham eng muhim masalalardan biriga aylanib boradi.

Globallashuv dunyo hamjamiyati ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir vaqtida, milliy iqtisodiyotlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xavf-xatar va tahdidlarni ham vujudga keltiradi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borgan sari bunday tahdidlar miqyosi kengayib, ularni bashorat qilish va bartaraf etish qiyinlashib boradi. Bir paytning o'zida ham dunyo hamjamiyatiga, ham alohida olingen konkret mamlakatga tahdid soladigan yangi global xavf-xatarlar vujudga keladi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini keng xalqaro hamkoriksiz ta'minlash mumkin emas. Chunki yuzaga kelayotgan muammolarni faqat milliy vosita va mexanizmlar yordamida hal etib bo'lmaydi. Shu bois "milliy iqtisodiy xavfsizlik" va "xalqaro iqtisodiy xavfsizlik" kabi tushunchalar o'rtasida aloqadorlik kuchayib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

Aslida xavfsizlik tushunchasi ancha keng tushuncha bo'lib, inson hayoti va faoliyatining ko'plab sohalarida xavfsizlikning turli ko'rinishlarini tahlil qilish mumkin. Ba'zi olimlar o'z ilmiy ishlarida xavfsizlik ob'ehti sifatida butun bir tizimni emas, balki aynan bir yo'nalishni chuqur o'rganishgan va tahlil qilishgan. Misol uchun, xalqaro xavfsizlik²⁰, iqtisodiy xavfsizlik, innovatsion xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi²¹, energetik xavfsizlik²², ijtimoiy xavfsizlik²³ kabi yo'nalishlarda ko'plab ilmiy ishlar qilingan.

Iqtisodiy xavfsizlik holatini malakali tahlil qilish uchun uning strukturasini yaxshi bilish lozim. Iqtisodiy xavfsizlik ancha murakkab ichki tuzilishga ega. Iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- "Moliyaviy xavfsizlik" – bu moliyaviy munosabatlarning barcha darajalarida moliyaviy manfaatlarni himoya qilish, mamlakat moliyaviy tizimiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish, davlat moliya tizimining samarali ishslashini ta'minlashdir;
- "Ijtimoiy xavfsizlik" – bu mavjud bo'lgan konstitutsiyaviy tuzumni, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish, ularning zaiflashishining oldini olish, aholining ijtimoiy muammolarini kamaytirishdir;
- "Harbiy xavfsizlik" – bu xalqaro va ichki sharoitlardan kelib chiqqan holda, shaxsga, jamiyatga, davlatga bo'ladigan tahdidlarni oldini olish, mamlakat suverenitetini, hududiy yaxlitligini va tinchligini ta'minlashdir;
- "Tabiiy resurslardan foydalanish xavfsizligi" – bu ishlab chiqarishni resurslarning asosiy turlari bilan ta'minlash, moddiy resurslardan samarali foydalanish, ulardan foydalangan holda qo'shimcha qiymat yaratish, strategik resurslar bo'yicha davlat zaxiralarini yaratishdir;
- "Axborot xavfsizligi" – bu milliy axborot manbalari xavfsizligini ta'minlash, ishonchli axborotni olish, foydalanish, saqlash va qayta ishslashning samarali mexanizmlarini tatbiq etish, axborot xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan texnologiyalar, standartlar va boshqaruv amaliyotini ishlab chiqish va joriy etish;
- "Oziq-ovqat xavfsizligi" – bu butun mamlakat aholisi uchun faol va sog'lom hayot uchun zarur miqdordagi va sifatli oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishdir;
- "Ilmiy-teknologik xavfsizlik" – bu fanning fundamental va amaliy qismi natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, ilmiy texnologik yangiliklarni o'zlashtirib borish va samarali foydalanishdir;
- "Siyosiy xavfsizlik" – bu shaxsning, jamiyatning, davlatning huquqiy manfaatlariiga ta'sir etuvchi noqonuniy tashqi va ichki tajovuzlardan himoya qilish, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilagan chora-tadbirlar va amaliy faoliyat natijasidir;
- "Ekologik xavfsizlik" – bu atrof-muhitni muxofaza qilish, tabiiy va texnogen xalokatlarning oldini olish, ularning zararli ta'sirini kamaytirishga qaratilgan va amalgal oshiriladigan faoliyatdir;
- "Demografik xavfsizlik" – bu aholining tabiiy va mexanik harakatini, tug'ilish, o'lim, migratsiya masalalari, aholining yosh qatlamlari tuzilishi va prognози, iqtisodiy faol fuqarolarning yetarlilik darajasini o'rganish, tahlil qilish va xavfsizlik holatini aniqlab borishdir;

²⁰ Walter A. Open economy politics and international security dynamics: Explaining international cooperation in financial crises // European Journal of International Relations. 2016. Vol. 22. Is.2. P. 289-312.

²¹ Weiler A. M. Food sovereignty, food security and health equity: a meta-narrative mapping exercise / A. M. Weiler, C. Hergesheimer, B. Brisbois, H. Wittman, A. Yassi, J. M. Spiegel // Health Policy And Planning. 2015. Vol. 30. Is. 8. P. 1078-1092.

²² Sovacool B. K. Differing cultures of energy security: An international comparison of public perceptions // Renewable & Sustainable Energy Reviews. 2016. Vol. 55. P. 811-822


²³ Zanini A. Social Security. A Political Paradigm for the Welfare State // Filosofia Politica. 2015. Vol. 29. Is. 3. P. 421-438.

– “Ishlab chiqarish xavfsizligi” – bu ishlab chiqarish omillari holatini tahlil qilish, samarali ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, raqobatbardosh va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishdir;

– “Tashqi iqtisodiy xavfsizlik” – bu tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy iqtisodiy manfaatlarga muvofiqligi, salbiy tashqi iqtisodiy omillarning zararini minimallashtirish, milliy iqtisodiy mahsulotlarni jahon bozorida o‘z o‘rnini egallashini ta‘minlashdir.

– “Investitsion va innovatsion xavfsizlik” – bu jozibador investitsion muhitni yaratish, me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish hamda soliqqa tortish tizimining uzoq muddatli investitsion rejalashtirishga muvofiqligini ta‘minlash, ishlab chiqarishda innovatsion yangiliklarni joriy etishdir.

Iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash uchun uni quyidagi rasmida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilish lozim.



1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash yo‘nalishlari²⁴

Milliy iqtisodiy tizimning umumiy holati orqali iqtisodiy xavfsizlikni baholash – bu mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi, iqtisodiy tizimning tarmoqlari va ularning holatini tahlil qilish orqali iqtisodiy xavfsizlikni baholashdir. Milliy iqtisodiy tizimning holatini ko‘rsatuvchi indikatorlar va ularga ta’sir etuvchi omillar orqali iqtisodiy xavfsizlikni baholash – iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilishda tahlil ob’ekti bo‘lgan iqtisodiy-ijtimoiy indikatorlardan, xavfsizlikka u yoki bu darajada ta’sir etuvchi omillardan, shuningdek mamlakat iqtisodiy tizimi ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda tahlil qilishdir.

Milliy iqtisodiy tizimning barqarorligini tahlil qilish – iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi tahdidlarni aniqlash, ularning iqtisodiy tizimga yetkazgan zararlarini hisoblash, kutilayotgan zararlarini prognoz qilish orqali milliy iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini va barqarorligini aniqlashdir. Iqtisodiy tahdidlarni eng umumiy tarzda ichki va tashqi tahdidiga ajratib o‘rganish mumkin. Tashqi tahdidlar geopolitik, tashqi-iqtisodiy, shuningdek, global ekologik omillar bilan tavsiflanadi.

Quyidagi rasmida ko‘rsatilgan iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillarini, o‘z navbatida, ikki guruhgaga ajratish mumkin:

- birinchidan, iqtisodiy tizimning davriy rivojlanish qonuniyatlariga bog‘liq tahdid omillar;
- ikkinchidan, davriy rivojlanish qonuniyatlariga bog‘liq bo‘lmagan omillar.

Birinchi guruh omillari harakati oqibatida ma’lum vaziyatda makroiqtisodiyot darajasida salbiy holatlar yuzaga kelib, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Ikkinchi guruh omillari harakati esa uzoq muddatli davrda xo‘jalik tizimi muhim elementlarining takror ishlab chiqarilishi natijasida to‘plangan noxush tendensiyalar tufayli yuzaga keladi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillardan, eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko‘tarilib ketish tashqi bozorga nihoyatda bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot uchun o‘ta xavfli hisoblanadi.

Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug‘diruvchi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadaligining o‘ziyoq milliy manfaatlarga mos keladigan tashqi siyosat yuritishni shubha ostiga qo‘yadi. Mamlakat qarz bergen yirik kreditor mamlakatlarga qaram bo‘lib qoladi.

²⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.


Ichki omillar	Tashqi omillar
ko‘pchilik tarmoqlarning, yuqori energiya va resurs sig‘imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;	eksport tarkibida xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an’anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo‘qotilishi;
iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;	mamlakatning ko‘p turdagи mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi, bog‘liqligi;
yuqori darajadagi inflyatsiya;	tashqi qarzlarning o‘sib borishi;
infratuzilma ob’ektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi	eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, bojxona chegaralarining yopiq emasligi;
mineral xom ashyo bazalarining kam o‘rganilanligi va xo‘jalik oborotiga tortilish imkoniyatlarining yetarli emasligi;	raqobatga bardoshli eksportni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy a axborot infratuzilmalarining rivojlanmaganligi hamda import tarkibining rasional emasligi;
mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yo‘nalishlarining samarasizligi	eksport-import operatsiyalariga xizmat ko‘rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivolanmaganligi
ichki bozorlarda chet el firmalari tomonidan mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini siqib chiqarilishi;	
investitsion faoliyoning pastligi;	
kapital xarajatlar o‘rniga joriy xarajatlarni afzal ko‘rish;	
sotsial ziddiyatlarning kelib chiqish xavfining mavjudligi	
ichki va tashqi bozorda monopoliya holating mavjudligi, g‘ayriqonuniy faoliyat ko‘ratish hamda huquqiy intizomining pastligi;	
iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy va shartnomaviy intizomining pastligi;	
iqtisodiyotning kriminallashuvi va uni boshqarishda korrupsiyaning kuchayishi;	
daromadlarni yashirish va soliq to‘lashdan ochish holatlarining ko‘payishi;	
moliyaviy mablag‘larni chet ellarga noqonuniy tarzda o‘tkazish	

2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki va tashqi omillar²⁵

Davlat iqtisodiy manfaat va xavfsizlikka tahidlarni aniqlab, ularning oldini olish maqsadida iqtisodiy siyosat maqsadlari va strategiyalarini ishlab chiqadi. Bu bilan iqtisdoiylar xavfsizlikni ta’minlash mexanizmini yaratadi.

Quyidagi 3-rasmdan O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi ko‘rsatkichlarini 2012-2022 yillar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, 2012-2013 yillarda eksport hajmining (2012 yilda 13599,6 mln. doll., 2013 yilda 14322,7 mln. doll.) import hajmidan (2012 yilda 12816,6 mln. doll., 2013 yilda 13946,9 mln. doll.) ko‘proq miqdorda bo‘lganligini va tashqi savdo balansi ko‘rsatkichining ijobjiy saldoga ega ekanligini ko‘rshimiz mumkin.

²⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlari (mln. AQSh dollar)²⁶

2014 yildan boshlab esa eksport ko'rsatkichidan, import ko'rsatkichining oshib borganligini, 2022 yilga kelib eksport hajmi 19 309,1 mln. doll. (o'tgan yilga nisbatan 15,9 % ga ko'p) va import hajmi 30 699,3 mln. doll. (o'tgan yilga nisbatan 20,4 % ga ko'p) yetganligini, tashqi savdo balansi ko'rsatkichi 11 390,2 mln. doll. qiymatida bo'lib manfiy ekanligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining eksport tarkibi (mln. AQSh dollar)²⁷

Nº	XSST nomi	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
	Jami:	12 499,6	12 078,4	12 534,2	13 990,4	17 458,7	15 102,3	16 662,8	19 309,1
1	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 239,6	644,9	817,9	1 029,9	1 436,4	1 336,2	1 371,8	1 631,6
2	Ichimliklar va tamaki	23,1	17,8	23,4	22,3	29,8	27,1	36,0	111,0
3	Nooziq-ovqat xomashyo, yokilg'idan tashqari	885,3	788,5	626,6	427,5	591,2	456,1	509,5	399,4
4	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 685,1	1 713,9	1 607,6	2 666,8	2 528,9	659,0	914,8	1 222,1
5	Hayvonlar va usimliklar moylari (yoglari), yoglar va mumlar	0,2	0,0	0,0	0,1	12,4	26,8	1,5	21,2
6	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	594,8	817,6	860,7	881,3	836,5	820,9	1 131,2	1 301,8
7	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1 739,5	1 712,6	2 200,7	2 411,8	2 752,9	2 906,4	4 333,1	4 443,2
8	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	137,0	208,9	350,8	204,1	421,8	434,4	693,6	975,7
9	Turli xil tayyor buyumlar	213,1	245,8	311,8	337,6	435,7	617,3	785,6	1 111,3
10	Boshqa tovarlar	1 920,6	2 807,6	3 260,0	2 939,0	4 978,2	5 813,1	4 303,9	4 132,3
11	Xizmatlar	3 061,3	3 120,6	2 474,5	3 070,0	3 434,8	2 005,0	2 581,7	3 959,5

²⁶ O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi 3-jadvaldan O'zbekiston Respublikasining eksport tarkibini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi – XSST bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar ulushi 2015 yilda 2685,1 mln. doll.ni, 2018 yilda 2666,80 mln. doll.ni, 2022 yilga kelib esa 1222,10 mln. doll.ni tashkil qilgan. Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi esa 2015 yilda 1739,50 mln. doll.ni, 2018 yilda 2411,80 mln. doll.ni, 2022 yilda esa 1442,20 mln. doll.ni tashkil qilib o'sib borish xarakteriga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mashinalar va transport asbob-uskunalarini eksportining ham yildan yilga oshib borayotganligini, 2015 yilda 137 mln. doll.ni, 2018 yilda 204,1 mln. doll.ni, 2022 yilda esa 975,7 mln. doll.ni tashkil etganligini ko'ramiz. Jami eksport qilingan tovar va xizmatlar miqdori 2015 yilda 12499,6 mln. doll.ni tashkil etganligini va bu ko'rsatkich yil sayin oshib borib 2022 yilda 19309,10 mln. doll.ni tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasining import tarkibi (mln. AQSh dollarasi)²⁸

No	XSST nomi	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
	Jami:	11 924,1	11 542,0	13 370,3	19 423,0	24 291,5	21 153,8	25 507,7	30 699,3
1	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 314,2	1 144,6	1 049,0	1 327,4	1 608,5	1 851,3	2 509,5	3 392,5
2	Ichimliklar va tamaki	43,5	45,2	35,2	24,0	44,0	49,3	89,9	139,2
3	Nooziq-ovqat xomashyo, yokilg'idan tashqari	174,4	263,7	315,7	803,8	1 026,6	864,4	1 154,5	1 283,4
4	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	725,0	589,0	742,1	879,5	940,6	1 106,9	1 556,7	1 794,0
5	Hayvonlar va usimliklar moylari (yoglari), yoglar va mumlar	219,3	224,6	160,1	211,6	279,6	296,8	411,0	400,9
6	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1 691,4	1 717,2	1 695,7	2 125,9	2 686,7	2 881,1	3 647,7	4 231,2
7	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1 919,0	1 775,2	2 325,9	3 461,2	4 147,9	3 581,3	4 722,1	5 761,5
8	Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	4 437,7	4 518,8	4 517,0	7 668,5	9 568,6	7 954,4	8 252,4	9 648,3
9	Turli xil tayyor buyumlar	445,6	454,5	552,4	773,5	1 505,7	1 309,3	1 385,0	1 459,1
10	Boshqa tovarlar	-	0,0	0,1	20,5	57,4	37,7	11,6	62,9
11	Xizmatlar	954,1	809,2	1 977,2	2 127,0	2 425,9	1 221,4	1 767,3	2 526,3

O'zbekiston Respublikasining import tarkibini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi – XSST bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, eng katta ko'rsatkich mashinalar va transport asbob-uskunalariga tegishli bo'lib, uning ulushi 2015 yilda 4437,7 mln. doll.ni, 2018 yilda 7668,50 mln. doll.ni, 2022 yilga kelib esa 9648,30 mln. doll.ni tashkil qilgan. Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi esa 2015 yilda 1919,00 mln. doll.ni, 2018 yilda 3431,20 mln. doll.ni, 2022 yilda esa 5761,50 mln. doll.ni tashkil qilib o'sib borish xarakteriga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek import tovarlari tarkibida Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar ulushining ham yildan yilga oshib borayotganligini, 2015 yilda 1314,20 mln. doll.ni, 2018 yilda 1327,40 mln. doll.ni, 2022 yilda esa 3392,50 mln. doll.ni tashkil etganligini ko'ramiz.

Jami import qilingan tovar va xizmatlar miqdori ham o'sish xaraketiga ega bo'lib, 2015 yilda 11924,1 mln. doll.ni tashkil etganligini 2018 yilda 19423,00 mln. doll.ni 2022 yilda 30699,30 mln. doll.ni tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan, mashinalar va transport asbob-uskunalar, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga

²⁸ O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

o'xshash tovarlariga talab o'tgan yillarga nisbatan oshib borayotganligi, mamlakatimizda sanoatning rivojlanishi va yangi texnologik tovarlarga ehtiyojning vujudga kelayotganligi bilan bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi.

Tahlillar natijasida ko'rishimiz mumkinki, rivojlangan davlatlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, jamiyatning barqaror rivojlanishi va fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha olib borilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar sifatida quyidagilarni tanlab olishgan:

- davlat hokimiyati organlarining bir-biridan mustaqilligi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining o'zaro mustaqilligi va fakatgina o'z funksiyalarini bajarishi orqali butun tizimning samarali ishslashini ta'minlash;

- qonun ustuvorligini ta'minlash. Qabul qilinayotgan qonunlar barcha uchun tushunarli hamda amal qilishi barobar bo'lishi, hech qanday guruh yoki shaxsning manfaatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinmasligiga erishish;

- ijro hokimiyati organlari faoliyatlarida bir xil vazifalarni bajarilishining oldini olish hamda qaysidir organlarning vakolatlari ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaslik;

- soliq siyosatini olib borishda, avvalambor, tadbirkorlar uchun qulaylik yaratish, soliq solishning majburiyligi, aniqliligi, adolatiligi, soliq tizimining yagonaliligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliyi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga amal qilinishini ta'minlash;

- byudjet mablag'laridan foydalanish haqida soliq to'lovchilarga doimiy va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish, byudjet oshkoraligini ta'minlash;

- halol raqobatni ta'minlash, tadbirkorlarning va iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish;

- xalqaro shartnomalar tuzishda, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishda davlatning va xalqning manfaatlarini ustun qo'yish.

Xulosa va takliflar.

Keyingi yillarda dunyoda sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar natijasida jahon xo'jaligining universallashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining optimal joylashtirilishi, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan iqtisodiy makonning kengayishi natijasida barcha mamlakatlarda milliy ishlab chiqaruvchilar asosiy e'tiborni ichki bozorlarga emas xalqaro bozorlarga qaratmoqdalar. Kapital harakatining erkinlashuvi natijasida, xalqaro savdo hajmlari, mamlakatlar o'rtasida moliyaviy va sarmoya oqimlari bir necha barobar oshib bormoqda. Globallashuv sharoitida mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash juda murakkab vazifalarni o'z ichiga oladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallahuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintqa darajasida ham eng muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Globallashuv dunyo hamjamiyati ishtirokchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir vaqtda, milliy iqtisodiyotlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xavf-xatar va tahdidlarni ham vujudga keltiradi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borgan sari bunday tahdidlar miqyosi kengayib, ularning oqibatlarini bartaraf etish tobora qiyinlashib boradi. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini keng xalqaro hamkoriksiz ta'minlash mumkin emas. Buning uchun birinchi navbatda, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatinining maqsadlari, asosiy yo'nalishlari va vazifalarini ham belgilab olish kerak. Buning uchun har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari, geografik joylashuvi, iqtisodiy tizimining rivojlanganlik darjasini, tabiiy boyliklari, mehnat resurslarining tarkibi va holati kabi ko'plab omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlarini amalga oshirish uchun mamlakat iqtisodiy holatini doimiy monitoring qilib borish hamda unga ta'sir euvchi ichki va tashqi omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish talab etiladi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Dick K. Nanto (2011) *Economics and National Security: Issues and Implications for U.S. Policy*. Электрон манба. URL: <https://www.fas.org/sgp/crs/natsec/R41589.pdf>

Goodwin C.B. (1991) *Economics and National Security. A History of Their Interaction* / Durham; London: Duke University Press, 310 p.

Khamidova F., (2020) *Indicators of economic security of the region*. South Asian Academic Research Journals. Vol. 10 Issue 3, March, p 96-100. <http://www.saarj.com>

Szyan Jiang Y. (2007) *Economic Security: Redressing Imbalance // China Security.. Vol. 3. No.2. P. 66-85.*

Дробышевский С.М. (2006) Некоторые подходы к разработке системы индикаторов мониторинга финансовой стабильности / (рук. авт. коллектива) [и др.]. – М.: ИЭПП., – 305 с.

Жабборов Ж.А., (2020) Оценка рисков национальной экономической безопасности на основе основных макроэкономических показателей Республики Узбекистан./ Отраслевые задачи в эпоху цифровизации.Перспективы реализации и риски/ материалы Международной практической конференции. Изд-во.: Национальный исследовательский ядерный университет "МИФИ" Москва, с. 350-355

Истроилов Б.И., Каримов Н.Г., Колесников Ю.Л. и др. (2018) Экономическая безопасность:Учебное пособие/ авторский коллектив-Спб.: Изд-во Политехн.ун-та, – 255 с.

Кейнс Дж. М. (1993) Избранные произведения. М.: Экономика,. С. 514-515

Лапаева, О.Н. (2017) Многопроекционная сравнительная оценка альтернатив в экономике / О. Н. Лапаева. – Нижний Новгород: НГТУ им.Р. Е. Алексеева, – 210 с.

Ортикова Д. (2010) Иқтисодий ҳавфсизлик. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 150 бет

Фейгин Г.Ф. (2009) Развитие национальных экономик в условиях глобализации: историко-экономический аспект. / Известия Санкт-Петербургского университета. №2,, с.14